

TARIXIY ASARLAR BILIM O'RNI VA MAQOLLARNING IBRATLI JIHATI

Suvanov Husniddin Norqulovich

Termiz davlat universiteti, O'zbek filologiyasi fakulteti,

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Tel:+998977868805 E-mail: hsuvanov@tersu.uz<https://doi.org/10.5281/zenodo.14503218>

Annotatsiya. Tarixiy asarlarning muhim ahamiyat kab etishi va tarixiy asarlardagi milliy shaklga ega bo'lgan xalq hikmatlarining o'rni. Xalq maqollarining millat hayotidagi paydo bo'lishi va tarbiyaviy jihatlari. Maqol xalq og'zaki ijodining qisqa-aniq fikrlar bayoni, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli iboralar ekani, maqol chuqur tarixiy-milliy xarakterga egaligi bilan xalq hayotidan muhim o'rin egallaganligi kabi xarakterli belgilar ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: Devon, maqol, hikmat, tarixiy, milliy va badiiy asar

THE ROLE OF HISTORICAL WORKS IN KNOWLEDGE AND THE INSTRUCTIVE ASPECT OF PROVERBS

Abstract. The importance of historical works and the role of folk wisdom in historical works with a national form. The emergence of folk proverbs in the life of the nation and their educational aspects. The characteristic features of the proverb are revealed, such as the fact that it is a concise and clear statement of thoughts, grammatically and logically complete meaningful wise expressions, and that the proverb has a deep historical and national character and occupies an important place in the life of the people.

Keywords: Devan, proverb, wisdom, historical, national and artistic work.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ТРУДЫ — ЭТО МЕСТО ЗНАНИЙ, А ПОСЛОВИЦЫ — ПОУЧИТЕЛЬНЫ

Аннотация. Значение исторических произведений и роль национальной мудрости в исторических произведениях. Возникновение и воспитательные аспекты народных пословиц в жизни народа. Характерными чертами пословиц являются краткие и ясные выражения народного устного творчества, мудрые фразы, имеющие грамматический и логический смысл, пословицы имеют глубокий исторический и национальный характер и занимают важное место в жизни народа.

Ключевые слова: Девон, пословица, мудрость, историческое, национальное и художественное произведение.

Necha asrki insoniyat yashab kelmoqda. Tarixga nazar tashlasak inson fikratining yuksak cho'qqisi bo'lgan badiiy namunalarga yuzlanamiz. Badiiy namunalar esa xalq tomonidan

yaratiladi. Xalq tomonidan yaratilgan madaniy merosning yaxlit mohiyati, shubhasiz, o'sha xalqning ma'naviyatini tashkil etadi. Har bir xalqning og'zaki yoki yozma boyligi mavjud. Og'zaki va yozma ijodga xalqning umummilliy qadryatlari, tarixda asosli belgilari. Xalq xotirasida o'chmas bo'lib saqlanib qolgan, inson ongida chuqur ildiz otgan eposlari milliy shakllarni belgilab beradi. O'lis tarixga guvoh bo'lgan badiiy manbalar bor. Ana shu badiiy namunalar millat hayoti tasvirlaydi. Davriy nuqtayi nazardan keng va asosli yoritilgan badiiy adabiyot namunalarini misol qilishimiz mumkin. "Devoni lug'atit turk", "Qutadug'u bilig", "O'tkan kunlar" "Kecha va kunduz" va boshqa ko'plab asarlarda hayotning realligi aniq ko'rsatilgan. Asrlar davomida to'plangan, madaniy merosning ajralmas qismini tashkil etuvchi, bu asarlar ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan badiiy va qadrli manbalardir. Xalq orasida e'zozlanib kelayotgan o'zbek xalq badiiy meroslari inson tafakkurining rivojida namoyon bo'layotganiga guvoh bo'lamiz. Asarlarda mavzu va g'oyalari turli ko'rinishda bo'ladi. G'oyalar asosida asar mazmuni yoritilib beriladi. Asarlarda mazmun turli bo'lishi mumkin. Har qanday asarda millatga tegishli bo'lgan inson hayoti va hayot bilan bo'g'liq bo'lgan atrof muhit yoritib beraladi.

Bundan tashqari, ilm manfaati haqidagi to'rtliklar yoki fardlar ham bevosita yozma adabiyotning mahsulidir, ya'ni ma'lum bir shoir ijodiga mansubdir. Zotan, ilm manfaati haqidagi o'gitlar Qoraxoniylar davri adabiyotining muhim xususiyatlaridandir:

O'gran aning biligin, Kunda angar bam. Qutqilig'in taping'il Qo'zg'il kuvaz naru (II, 161-162)

Qo'ldash bilan yarashg'il, qarshib adin urdurma,

Bek tut yavash taqag'u suvin yazin adirma (II jild, 18-b.)

Agar bilimdon odamga yo'liqsang, har kun unga bor, yaxshi muomala bilan uning ilm-u hikmatlarini o'rgan, takabburlikni tashla.

Qo'ldosh (suhbatdosh)ingni hurmat qil, yaxshi muomalada bo'l, qarshilik qilib, uni tashlab, boshqa bilan bo'lma. Uydagi tovuqni boqolmay qochirib yuborib, durrojni boqaman deb ovora bo'lma.

Buningdek ibratli fikrlar "Devoni lug'atit turk" asarida ko'p. Asarda keltirilgan maqollardan namunalar:

"Erik erpi yag'lig', ermagu bashi qanlig'" ("Tirishqoqning labi yog'lik, erinchoqning boshi qonlik"). Bu maqol yalqovlikni tashlashga, g'ayrat bilan ishlashga undab aytiladi. "Suv ichirmasga sut ber". U senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil, degan ma'noda ishlatiladi.

“O’kuz azaqi bo’lg’incha, buzag’u bashi bo’lsa yik” (“Ho’kizning oyog’i bo’lguncha, buzoqning boshi bo’lgan yaxshiroq”). U “mustaqillik bo’ysunishdan yaxshi” degan ma’noda qo’llanadi.

“Tavg’ach xanning to’rquasi telim, tenglamazib bichmas” (“Qoraxitoy) xoqonining ipak gazmoli ko’p, lekin o’lchamay kesilmaydi”). Bu maqol ishni boshida puxta o’ylab qilishga undab, isrofgarchilikka qarshi aytilgan.

“Uma kelsa, qut kelar” (“Mehmon kelsa qut kelar”). Bunda «senga mehmon kelsa, u bilan birga baraka, qut-baxt keladi, qo’noqni yaxshi qarshi oladilar, malol olmaydilar” degan fikr ilgari surilgan.

“Qiz kishi savi yo’rig’li bo’lmas” (“Baxil odam obro’ topmaydi”). Bu maqol odamlarni yaxshi nom chiqarish, saxiy bo’lish uchun undab aytiladi.

“Erdam bashi til” (“Odobning boshi til”).

“Tilin tug’mishin tishin yazmas” (“Til bilan tug’ilganni, tish bilan yechib bo’lmas”)

Yana shoh asarlarimizdan biri “Qutadug’u bilig asari” asaridir. “Qutadg’u bilig” qoraxoniylar hokimiyatining o’ziga xos nazmiy nizomnomasi bo’lib, bu ramziy-timsoliy asar yurt egalari bo’lmish hukmdorlar va katta-kichik amaldorlarga atab yozilgan va asarda ularga mamlakatni adolat bilan boshqarish, tinchlikni saqlash, raiyatga zulm qilmaslik, bil’aks, xalqning og’irini yengil qilish, turmushini farovon aylash, jamiyatning ma’naviyaxloqiy negizlarini mustahkamlash, ilm-ma’rifatga keng e’tibor berish, iste’dod sohiblarini qo’llab-quvvatlash, huquq, burch, adolat bo’yicha maslahat va tavsiyalar berilgan. Hukmdorlar adabnomasi — “Qutadgu bilig” qoraxoniylar sulolasi misolida turkiy davlatchilik asoslari yangi bosqichga ko’tarilgan davrda zamon kun tartibiga qo’ygan siyosiy-ijtimoiy masalalarni hal qilishda asosiy dastur bo’lgan. Shoirning u yoki bu masala bo’yicha pand-nasihatlar xuddi hikmatday jaranglaydi, xalq maqollariga o’xshab ketadi — ularning badiiy yuksakligi va ma’rifiy ahamiyati ham qadr-qimmatini shundadir. Demak, maqolga xos ko’rinishlar “Qutadg’u bilig” asarida uchrashi bizga ma’lum.

Tarix davomida yaratilgan va saqlanib qolgan, xalq donoligining ibratli timsoli bo’lib xizmat qilgan eng sara maqollar bugungi kunda ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Maqollar har bir xalq uchun ma’naviy merosning bebaho xazinasini tashkil etadi.

Maqol — xalq og’zaki ijodining qisqa-aniq fikrlar bayoni, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli iboralardir. Maqol chuqur tarixiy-milliy xarakterga egaligi bilan xalq hayotidan muhim o’rin egallagan. Maqollar aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg’ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollarning universal bo'lgani uchun paremiologik shakldir. Maqollar o'xshash va o'xshash vaziyatlarni umumlashtirgan holda bir butun shaklga keltiradi. Maqollarning tarixiyligi, milliyligi va real voqealar asosida paydo bo'lganligi uning qimmatini oshiradi. Maqollar qaysi millatga mansub bo'lsa, o'sha xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi uchun muhimdir. Ularga taalluqli bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pgina maqollar turli tillarda, shuningdek, umumiy funksional roli yoki semantik vazifalariga ko'ra turli shakl va ma'nolarga ega bo'ladi. Masalan, "Avval o'yla -kiyin so'yla" maqolining ma'nosi avval o'ylash kerakligini va kiyin so'ylash kerakligini aniq aytayпти. Har bir so'zni aytishdan oldin uni tahlil qilish kerakligiga ishora qilyapti. Qanday mazmunda bo'lishidan qat'i nazar maqollar xalq boshidan kechirgan tajribalari natijasida paydo bo'ladi.

REFERENCES

1. NURILLO CHORINING BADIY ASARLARIDA MILLIY KOLORITGA XOS KO'RINISHLAR NUTQIY JIHATDAN IFODALANISHI SH Norqulovich - International conference on multidisciplinary science, 2023
2. NATIONAL COLOR AND COMPARATIVE ANALYSIS IN THE WORKS OF MAHTUMQULI, GAFUR GHULAM AND ANVAR SUYUN H Suvanov - Modern Science and Research, 2024
3. Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir HN Suvanov - Science and Education, 2023
4. "ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI S Husniddin - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2022
5. MILLIY MADANIYAT VA MILLIY KOLORIT BADIY ASARDA NAMOYON BO'LISTI H Suvanov - NRJ, 2024
6. MANIFESTATION OF THE NATIONAL COLOR CHARACTERISTIC OF THE NATIONAL MENTALITY IN THE WORKS OF BIBI ROBIA SAIDOVA H Suvanov - Modern Science and Research, 2023
7. HUSNIDDIN SUVANOV CHARACTERISTIC ASPECTS OF NATIONAL COLOR IN BIBI ROBIA SAIDOVA'S STORY" OQMAYDIGAN TOSH" 2023/4/30. Страницы 50-53
8. Suvanov Husniddin INTERPRETATION OF THE NATIONAL SPIRIT IN THE STORY OF ESHMONBEK ONLINE SCIENTIFIC JOURNAL OF SUSTAINABILITY AND LEADING RESEARCH Страницы 126-131